

ABDURAZZOQ GURNA ASARLARIDA XOTIRA VA IDENTITETNING LINGVOMADANIY TALQINI

Saydamatova Dilafro‘z Xamidullo qizi,

Namangan davlat universiteti

III bosqich tayanch doktoranti

dilafruzsaydamatova97@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulrazak Gurnah (Abdurazzoq Gurna) asarlarida xotira va identitet masalalarining lingvomadaniy talqini tahlil qilinadi. Yozuvchining “Paradise”, “By the Sea” hamda “Gravel Heart” romanlari misolida postkolonial tajriba, migratsiya, ruhiy kechinmalar va madaniy identitetning shakllanish jarayonlari o‘rganiladi. Tadqiqot lingvomadaniy yondashuv asosida olib borilib, til vositalari orqali xotira va identitetning ifodalanish mexanizmlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Abdurazzoq Gurna, lingvomadaniyat, xotira, identitet, postkolonial adabiyot, diskurs, migratsiya, ruhiy kechinmalar.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвокультурная интерпретация категорий памяти и идентичности в произведениях Abdulrazak Gurnah (Абдураззак Гурна). На материале романов Paradise, By the Sea и Gravel Heart исследуются процессы формирования культурной идентичности, постколониальный опыт, миграция и психологические переживания персонажей.

Ключевые слова: Абдураззак Гурна, лингвокультурология, память, идентичность, постколониальная литература, дискурс, миграция, психологические переживания

Abstract. This article examines the linguocultural interpretation of memory and identity in the works of Abdulrazak Gurnah (Abdurazzoq Gurna). Based on the novels Paradise, By the Sea, and Gravel Heart, the study explores postcolonial experience, migration, psychological states, and the formation of cultural identity. The research is conducted within a linguocultural framework, identifying the mechanisms through which memory and identity are represented through language.

Keywords: Abdurazzoq Gurna, linguocultural studies, memory, identity, postcolonial literature, discourse, migration, psychological experience

Kirish. Bugungi kunda jahon adabiyotshunosligida shaxsning madaniy o‘zligini anglash masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, postkolonial adabiyotda xotira va identitet tushunchalari inson ruhiyati va ijtimoiy ongni tushunishda muhim nazariy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Abdurazzoq Gurna ijodi ana shu jarayonlarni chuqur badiiy tahlil etishi bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida mustamlakachilik oqibatlari, migratsiya, begonalik hissi va madaniy bo‘linishlar inson ruhiyatida qanday aks etishi keng yoritiladi. Shu bois uning ijodi lingvomadaniy yondashuv asosida o‘rganish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xotira fenomeni zamonaviy adabiyotshunoslikda nafaqat psixologik, balki lingvomadaniy va diskursiv kategoriya sifatida ham talqin qilinadi. *Jan Assmann* tomonidan ishlab chiqilgan “madaniy xotira” konsepsiyasiga ko‘ra, xotira individual tajribadan tashqariga chiqib, jamiyatning tarixiy ongini shakllantiruvchi muhim

mexanizm hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, badiiy matn xotirani nafaqat aks ettiradi, balki uni qayta konstruksiya qiladi.

Abdurazzoq Gurna asarlarida xotira diskursi ko‘pincha fragmentar va noxronologik shaklda namoyon bo‘ladi. Bu uslub postkolonial subyekt ongining izdan chiqqanligini ifodalaydi. Xususan, *“By the Sea”*[1] romanida hikoya retrospektiv xotiralar asosida qurilib, voqealar ketma-ketligi buzilgan holda beriladi. Bu esa travmatik xotiraning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Keti Karut ta’kidlaganidek, travmatik xotira to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita, uzilgan va takrorlanuvchi shaklda ifodalanadi. Gurna matnlarida aynan shu xususiyat kuzatiladi: qahramonlar o‘z o‘tmishlarini to‘liq anglay olmaydi, balki uni parchalar orqali qayta tiklaydi. Bu esa xotiraning lingvistik ifodasida ellipsis, takror, metaforik konstruksiyalar va ichki monologlarning ustuvorligini yuzaga keltiradi. Shuningdek, xotira va til o‘rtasidagi munosabat diskursiv darajada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Gurna asarlarida til xotirani ifodalovchi vosita sifatida emas, balki uni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa lingvomadaniy yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri – “til orqali madaniyatni anglash” prinsipiga mos keladi. Postkolonial nazariyada identitet masalasi markaziy o‘rin tutadi.

Muhokama va natijalar. Xomi K. Bhabha tomonidan ilgari surilgan “hybridity” (gibridlik) va “third space” (uchinchi makon) tushunchalari mustamlaka sharoitida shakllangan identitetning murakkab tabiatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Abdurazzoq Gurna qahramonlari aynan shu “uchinchi makon”da mavjud bo‘lgan subyektlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular na to‘liq o‘z madaniyatiga, na to‘liq G‘arb madaniyatiga mansub bo‘la oladi. Bu holat ularning ichki ruhiy ziddiyatlarini yuzaga keltiradi. Masalan, *“Paradise”*[2] romanidagi Yusuf obrazi mustamlakachilik tizimi ta’sirida shakllangan identitet inqirozining yorqin namunasidir. Uning hayoti savdo munosabatlari, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy bosimlar orqali boshqariladi. Bu jarayon shaxsning erkin identitet shakllanishiga to‘sqinlik qilib, uning “men”ini tashqi kuchlar tomonidan belgilanishiga olib keladi. Shu jihatdan Yusuf obrazi postkolonial sharoitda shakllangan subyektning tipik modeli sifatida talqin etiladi. Identitetning bu holati lingvistik darajada ham aks etadi. Qahramon nutqida turli madaniy kodlarning aralashuvi, semantik noaniqlik va diskursiv bo‘linish kuzatiladi. Bu hodisa postkolonial nazariyada Xomi K. Bhabha tomonidan ilgari surilgan “gibridlik” (hybridity) konsepsiyasi bilan izohlanadi, ya’ni shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta madaniy makon ta’sirida shakllanadi va natijada uning identiteti barqaror emas, balki ko‘p qatlamli xarakter kasb etadi[3]. Bundan tashqari, mazkur jarayonni Stuart Hall tomonidan ta’riflangan identitetning doimiy shakllanish (becoming) jarayoni sifatida ham izohlash mumkin. Hallga ko‘ra, identitet tayyor holatda mavjud bo‘lmaydi, balki

tarixiy, madaniy va diskursiv omillar ta'sirida uzluksiz ravishda shakllanib boradi[4]. Shu sababli Yusuf nutqida kuzatiladigan diskursiv uzilishlar va semantik noaniqliklar uning ichki identitet ziddiyatlarini aks ettiradi. Mazkur holatni postkolonial subyektning “ikkiyoqlama ong” (double consciousness) fenomeni bilan ham bog'lash mumkin. Bu tushuncha shaxsning bir vaqtning o'zida ikki xil madaniy va ijtimoiy ong doirasida yashashini anglatadi. Natijada qahramon o'zini to'liq anglay olmaydigan, ichki bo'linishga uchragan subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvomadaniy yondashuvda til madaniyatning asosiy tashuvchisi sifatida qaraladi. Gurna asarlarida til ko'p qatlamli va polifonik xarakterga ega bo'lib, unda ingliz, arab va svahili madaniy kodlari o'zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi. Kod-almashuv (code-switching) fenomeni bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Qahramonlar nutqida turli tillarning elementlari birgalikda qo'llanib, ularning madaniy identitetini ifodalaydi. Bu hodisa lingvistik jihatdan kommunikativ zarurat bo'lsa, lingvomadaniy jihatdan identitet belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, Gurna matnlarida diskursiv strategiyalar ham muhim o'rin tutadi. Muallif ko'pincha ishonchsiz hikoyachi (unreliable narrator) usulidan foydalanadi. Bu esa voqelikning subyektiv talqinini kuchaytiradi va xotiraning nisbiyligini ko'rsatadi.

Diskursda intertekstual elementlar ham uchraydi: diniy, tarixiy va madaniy matnlarga ishoralar qahramon identitetining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu esa lingvomadaniy kodlarning ko'p qatlamli tizimini yuzaga keltiradi.

Abdurazzoq Gurna asarlarida badiiy tasvir vositalari psixologik tahlil bilan uzviy bog'liq holda qo'llanadi. Metafora, ramz va ichki monologlar orqali qahramonlarning ruhiy holati chuqur ochib beriladi.

Xususan, dengiz obrazi ko'p funksiyali ramz sifatida talqin qilinadi:

- migratsiya va harakat ramzi,
- xotira va o'tmish bilan bog'liqlik belgisi,
- noaniqlik va identitet izlanishining ifodasi.

“**By the Sea**” romanida dengiz qahramon hayotidagi o'tish nuqtasi sifatida namoyon bo'lib, uning ichki transformatsiyasini aks ettiradi.

Ichki monologlar esa psixologik tasvirning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu usul orqali qahramonning ong oqimi, ichki dialoglari va ruhiy kechinmalari bevosita o'quvchiga yetkaziladi. Natijada matn psixologik realizm darajasiga ko'tariladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurazzoq Gurna ijodi zamonaviy postkolonial adabiyot doirasida xotira va identitet masalalarini lingvomadaniy yondashuv asosida talqin etishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi asarlarida xotira fenomeni nafaqat individual psixologik jarayon sifatida,

balki kollektiv madaniy ongni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlillarimizga ko‘ra, Gurna matnlarida xotira ko‘pincha fragmentar, noxronologik va diskursiv uzilishlar orqali ifodalanadi. Bu esa postkolonial subyekt ongining travmatik xarakterini, o‘tmish bilan bog‘liq uzviylikning buzilganligini aks ettiradi. Xotiraning aynan shu shaklda berilishi til vositalari orqali amalga oshiriladi va lingvomadaniy jihatdan muhim semantik yukni o‘zida mujassam etadi. Identitet masalasiga kelsak, yozuvchi qahramonlari ko‘p qatlamli va gibril identitet egasi sifatida tasvirlanadi. Ular bir vaqtning o‘zida bir necha madaniy makonlar ta’sirida shakllanib, o‘zligini anglash jarayonida ichki ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Bu jarayon lingvistik darajada kod-almashuv, diskursiv bo‘linish va semantik noaniqliklar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan qaraganda, til faqat kommunikativ vosita emas, balki identitetni shakllantiruvchi va namoyon etuvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy-estetik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Gurna asarlarida metafora, ramz va ichki monologlar orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari chuqur ochib beriladi. Xususan, dengiz obrazi xotira, migratsiya va identitet izlanishining markaziy ramziga aylanadi. Bu esa yozuvchining badiiy tafakkuri va lingvopoetik mahoratini namoyon etadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Gurna ijodini lingvomadaniyat, postkolonial nazariya va psixologik adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv yozuvchi asarlaridagi ma’no qatlamlarini yanada chuqurroq ochishga imkon beradi. Umuman olganda, Abdurazzoq Gurna asarlarida xotira, til va identitet o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin qilinib, ular orqali zamonaviy global jarayonlar sharoitida shaxsning madaniy o‘zligini anglash muammosi yoritiladi. Ushbu tadqiqotimiz natijalari lingvomadaniy va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gurna A. Jannat (Paradise). – London: Bloomsbury Publishing, 1994.
2. Gurna A. Dengiz bo‘yida (By the Sea). – London: Bloomsbury Publishing, 2001.
3. Homi K. Bhabha. The Location of Culture. – London: Routledge, 1994.
4. Hall S. Cultural Identity and Diaspora // Identity: Community, Culture, Difference. – London, 1990. – p. 222–225.
5. Jan Assmann. Cultural Memory and Early Civilization: Writing, Remembrance, and Political Imagination. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
6. Cathy Caruth. Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996.
7. Stuart Hall. “Cultural Identity and Diaspora” // Identity: Community, Culture, Difference. – London: Lawrence & Wishart, 1990.
8. Paul Ricoeur. Memory, History, Forgetting. – Chicago: University of Chicago Press, 2004.
9. Edward Said. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978.
10. Mikhail Bakhtin. The Dialogic Imagination. – Austin: University of Texas Press, 1981.